

INGLIZ TILIDAGI MAQOL VA IBORALARNI O‘ZBEK TILIGA TARJIMA QILISH USULLARI VA MUAMMOLARI

*O‘zbekiston Davlat Jahon tillari universiteti
Qiyosiy tilshunoslik va lingvistik tarjimashunoslik
yo‘nalishi magistrantlari **Ne‘matova Lobar** va
Ahadova Muhabbat*

Annotatsiya: Ushbu maqolada maqol va iboralarni ingliz tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilishda ishlatiladigan tarjima usullar va duch kelinishi mumkin bo‘lgan muammolar bayon qilindi. Shuningdek, maqola ekvivalenlikka oid turli nazariyalarni, xususan, Ye. Nidaning shakliy va dinamik ekvivalentlik nazariyasini yoritishga xizmat qiladi. Maqolaning amaliy qismida ingliz tilidan bir nechta ibora va maqollar tanlab olinib, turli usullarda tarjima qilinganda qay shaklda bo‘lishi ko‘rib chiqildi va eng maqbul tarjima usullari taklif qilindi.

Kalit so‘zlar: frazeologiya, maqol, shakliy va dinamik ekvivalentlik, analog va tasviriy tarjima, kulturologiya, semantika, stilistika

Kirish

Avvalambor, “frazologiya” atamasiga to‘xtalib o‘tadigan bo‘lsak, tilda bir butun ma’noga ega hamda tarkibidagi so‘zlarning o‘z individual ma’nolaridan holi ibora, jumla va so‘z birikmalari frazeologik birliklar hisoblanadi. Maqol esa xalq og‘zaki ijodiga mansub qisqa, lo‘nda va hikmatli iboradir. Maqollar odatda insonlarga hayotiy saboq yoki o‘git berish maqsadida ishlatiladi. Ma’lumki har bir xalq o‘zining yashash tarzi, ma’naviyati va madaniyati aks etgan frazeologik birikmalar va maqollarga egadir. Tarjimonlikda ibora va maqollarni ingliz tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilishda etnik, madaniy va stilistik muammolar ko‘zga tashlanadi. XV-XVI asrlardan fan sifatida o‘rganilish boshlanganiga qaramasdan hozirgi kunda ham maqol va iboralarni tarjima qilish muammolarini hal etish va usullarini o‘rganish dolzarb masala hisoblanadi.

Bu maqola shu paytgacha taklif qilingan usullarning qanchalik samaradorligi hamda kamchiliklarini o‘rganishni va mashhur amerikalik tilshunos va tarjimashunos olim Nidaning shakliy va dinamik ekvivalentlikka oid nazariyasini tahlil qilishni maqsad qiladi. Maqolada ingliz tilidagi 10 dan ortiq maqollar va iboralarning o‘zbek tiliga tarjima qilinishida qo‘llaniladigan usullar va ular orasidan eng samarali, aslyatga yaqin varianti taklif qilinadi.

Ibora va maqollar tabiati

Maqollar va iboralar ko‘p asrlik tajribalar asosida yuzaga kelgani tufayli o‘ziga xos tarbiyaviy ahamiyatga ega. Chunki har bir maqol va ibora o‘z jamiyatining uzoq yillar davomidagi hayot tajribasi asnosida sinovdan o‘tadi, shu bois ular shakliy jihatdan yaxlitdir.

Maqol va iboralar tilning leksik, semantik va pragmatik jihatlariga katta ta’sir ko‘rsatadi. Maqol va iboralar leksik jihatdan barqarorligi, tarkibidagi so‘zlarning



mustaqil holatdagi ma’nosidan uzoqdaligi bilan ajralib tursa, semantik jihatdan esa insonlarning hayotiy tajribalari va axloqiy qadriyatlarini o’zida mujassam etishi bilan ajralib turadi. Masalan, ingliz tilidagi “Rome was not built in a day” maqoli biror ishda muvaffaqiyatga erishish sabr va harakat talab qiladi degan ma’noni tashiydi va uning tarkibidagi so’zlar o’z asliyatidan uzoqlashgan holda yaxlit bir ma’no kasb etadi. O’zbek tilida ekvivalent sifatida “Musulmochilik asta-sekinlik bilan” deb tarjima qilinadi.

Maqol va iboralarning pragmatik aspekti shundan iboratki, ular ma’lum bir vaziyatda nasihat qilish, ogohlantirish, o’git berish kabi funksiyalarni bajaradi. Misol uchun, ingliz tilidagi “Don’t count your chickens before they hatch” maqoli o’zbek tiliga “Jo’jani kuzda sanaymiz” deb tarjima qilinishi mumkin va biror matn yoki kontekstda ishlatilganida ogohlantirish va o’git berish ma’nosini ifodalaydi.

Maqol va iboralarni strukturaviy ya’ni tuzulishi jihatidan quyidagicha ta’riflash mumkin. Ular odatda barqaror struktura va o’zgarmas grammatik tuzilishga ega. Agar ularning tarkibidagi so’zlar almasha yoki o’zgarsa ma’nosi yo’qoladi, boshqacha tus oladi. Masalan, ingliz tilidagi “a piece of cake” iborasidagi “cake” so’zini ingliz tilidagi boshqa bir so’zga, biscuit yoki candy so’zlariga o’zgartirib bo’lmaydi, chunki bu iboraning o’zi shu holda yaxlit hisoblanadi va “xamirdan qil sug’urganday” ya’ni oson degan ma’noni tashiydi.

Maqol va iboralarning kulturologik tomonlama har bir xalq madaniyati urf-odatlarini, dunyo qarashi bilan chambarchas bog’liqligi anglashiladi. Ular orqali xalq tarixi, an’analari va qadriyatlari ifodalanadi, shuning uchun ularni boshqa tillarga tarjima qilish shu xalq tarixi haqida yetarli manbaga ega bo’lishni talab qiladi. Ingliz tilidagi “The early bird catches the worm” maqoli ingliz xalqini tartibli va tashabbuskor bo’lishga undasa, boshqa xalqlarda esa shu kabi maqollar odatda insonni sabr qilish va insoniylikka o’rgatadi. O’zbek tilidagi ekvivalenti esa “Erta turgan kishini Xudo o’nglar ishini” .

Maqol va iboralarni tarjima qilishdagi qiyinchiliklar

Ingliz tilidagi asliyatdan o’zbek tiliga maqol va iboralarni tarjima qilishda bir qancha qiyinchiliklar ko’zga tashlanadi. Ular ikki til orasidagi lingvistik tafovut, madaniyatlari orasidagi nomutanosiblik, asliyat ma’noning yo’qolish xavfi kabi muammolardir. Ingliz tili nazariyasi va gap tuzish strukturasi o’zbek tilidagi qoida va gap tuzilishidan tubdan farq qiladi. Xususan, ingliz tilida ega, kesim, ikkinchi darajali bo’laklar ketma ketlikda kelsa, o’zbek tilida esa ega, ikkinchi darajali bo’laklar so’ngra kesim shaklida so’zlar tartiblanadi. “Don’t count your chickens before they hatch” maqoli so’z tartibi kesim+aniqlovchi+to’ldiruvchi+hol shaklida bo’lsa, o’zbek tiliga tarjima qilinganda esa “Jo’jani kuzda sanaymiz”, to’ldiruvchi+hol+kesim shaklida joylashgan bo’ladi. Ingliz tilidagi am, is, are, do, did, will kabi yordamchi fe’llar o’zbek tilida mavjud emas, bu ham tarjima jarayonida qiyinchilikka sabab bo’lishi mumkin.



Kulturologik jihatdan kelib chiqadigan muammolarga to‘xtaladigan bo‘lsak, ikki xalq madaniyatlari orasidagi tafovut tarjimonga qiyinchilik tug‘dirishi mumkin. Ba’zi maqollarda va iboralarda to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘sha xalqning madaniy hayot tarziga ishora bo‘ladi. Bunga misol qilib, “bite the bullet” iborasini olish mumkin. Bu iboraning tarixi XIX asrlarda tibbiyot hali rivojlanmagan paytga borib taqaladi. Anastaziya (narkoz berish) bo‘lmagan paytlarda askarlarga jarrohlik amaliyoti davomida og‘riqqa chidash uchun og‘izlariga o‘qni tishlab turishlari buyurilgan. Shu davrdan bu ibora ommalashgan. O‘zbek tilida chidamli va sabrli bo‘lish ma’nosini bildiradi.

Har bir xalqdagi ibora va maqollarda o‘z vazifasi mavjud. Ular o‘z o‘rnida o‘sha xalqqa xos bo‘lgan va faqat o‘sha jamiyat odamlari uchungina tushunarli bo‘lgan yumor, maslahat va o‘git kabi ma’nolarga ega. Shu sababli maqol va iboralarni tarjima qilayotganda asliyat tildagi bu ma’nolarni ham saqlab qolishga e’tibor qaratish lozim. Masalan: “kick the bucket” to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima qilinganda “chelakni tepmoq” ma’nosini bildiradi va bu uning asl va etnik ma’nosining yo‘qolishiga olib keladi. Hamda o‘quvchilar tomonidan noto‘g‘ri anglanishiga sabab bo‘lishi mumkin. Bu ibora o‘zbek tiliga “o‘lmoq”, “vafot etmoq” deb tarjima qilinsa maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Maqol va iboralarni tarjima qilish usullari

Yuqoridagi qiyinchiliklarga yechim siaftida bir necha usullar taklif qilingan. Eng ommalashgan usullar quyidagilar: 1) so‘zma-so‘z tarjima, 2) monand (analog) tarjima, 3) tasviriy tarjima. Bu usullar hozirgacha tarjimonlar tomonidan samarali qo‘llanilib kelinmoqda.

So‘zma-so‘z tarjima: Maqol va iboralardagi so‘zlar qanday bo‘lsa shu holda tarjima qilinsa, bu so‘zma-so‘z tarjima hisoblanadi.

Monand (analog) tarjima: Maqol va iboraning tarjima qilinayotgan tildagi shu ma’noga mos ekvivalentini topish.

Tasviriy tarjima: So‘zma-so‘z yoki analog tarjima qilish imkoni bo‘lmaganda tarjima qilinayotgan maqol va iboraning ma’nosini tasvirlash usuli orqali tarjima qilish.

Maqol va iboralarning tarjimasida Ye. Nidaning shakliy va dinamik ekvivalentlik nazariyasi ham bu borada amalga oshirilgan mashhur ilmiy ishlardan biridir. Shakliy ekvivalentlik bu so‘zma-so‘z tarjima singari sintaktik so‘z tanlash va idiomatik birikmalarni saqlab qolishni maqsad qiladi. Va asosan asliyat matn strukturasi, grammatik jihatdan so‘zlarning qo‘llanilishi va original matnga eng mos tushadigan tarjima chiqarib beradi. Bundan tarjimaning tarjima qilinayotgan tilda tabiiy bo‘lmagan yoki g‘aliz bo‘lishi e’tiborga olinmaydi. Bunga teskari ravishda, dinamik ekvivalentlikda bir xil ma’no va mazmuni tarjima bag‘ishlangan auditoriyaga yetkazib berish maqsad qilinadi. Bunda maqol va iboralar tarkibida sintaktik va grammatik o‘zgarishlar bo‘lishi kuzatiladi.

Quyida 10 ta maqol va iboraning ham shakliy, ham dinamik ekvivalentlik asosidagi tarjimalarni keltirib o‘tiladi va ular orasida eng maqbul tarjima usuli taklif qilinadi:

1. Birds of a feather flock together

Shakliy ekvivalentlik: bir qanotli qushlar birga uchadilar.

Dinamik ekvivalentlik: teng tengi bilan, tezak qopi bilan.

Yuqoridagi tarjimalar orasida asliyat tildagi ma’noni tushunarli va aniq qilib yetkazib berayotgan usul bu- dinamik ekvivalentlikdir.

2. You can’t teach an old dog new tricks.

Shakliy ekvivalentlik: eski itga yangi hunar o‘rgata olmayсан.

Dinamik ekvivalentlik: eskini yamaguningcha esing ketadi.

Bu misolda shakliy ekvivalentlikdagi tarjima qisman ma’noga ega bo‘lsa-da, o‘zbek tili stilistik va semantik qoidalariga ko‘ra g‘alib hisoblanadi, shuning uchun dinamik ekvivalentlik usulida tarjima qilish maqsadga muvofiqdir.

3. Too many cooks spoil the broth.

Shakliy ekvivalentlik: juda ko‘p oshpaz sho‘rvani buzadi.

Dinamik ekvivalentlik: ikkita qo‘chqorning kallasi bir qozonda qaynamaydi.

Ikki tarjima ham ma’noga ega bo‘lishiga qaramasdan shakliy tarjima ba’zilar uchun anglashilmasligi yoki noto‘g‘ri tushunilishi mumkinligi sababidan dinamik ekvivalentlik usulidan foydalanish tavsiya etiladi.

4. Let sleeping dogs lie.

Shakliy ekvivalentlik: uxlayotgan itlarni uyg‘otma.

Dinamik ekvivalentlik: yopiqlik qozon yopiqlicigicha qolsin.

O‘zbek tili maqollari orasida shakliy ekvivalentlik usulida qilingan tarjimadagi ibora yoki maqol bo‘lmaganligi uchun bu usulda tarjima qilish xato, ammo dinamik ekvivalent o‘zbek auditoriyasi uchun tushunarli bo‘ladi.

5. A friend in need is a friend indeed.

Shakliy ekvivalentlik: qiyinchilikdagi do‘st haqiqiy do‘st.

Dinamik ekvivalentlik: chin do‘st mashaqqatda bilinadi.

Ikki tarjima usuli ham ma’noga ega va o‘quvchi tomonidan anglashilishiga qaramasdan dinamik usuldagi tarjima, asosan ko‘proq qo‘llaniladi.

6. Out of sight, out of mind.

Shakliy ekvivalentlik: ko‘zdan yiroq, esdan ham yiroq.

Dinamik ekvivalentlik: ko‘zdan yiroq, ko‘ngildan yiroq.

Bu maqolda ham yuqoridagi kabi ikki tarjima ham tushunarli va asliyat ma‘noni yoritib bergan, ammo dinamik ekvivalent omma orasida keng tarqagan.

7. Look before you leap.

Shakliy ekvivalentlik: sakrashdan oldin qara.

Dinamik ekvivalentlik: yeti o‘lchab bir kes.

Bu maqolda esa shakliy ekvivalentdagi kabi ibora yoki maqol o‘zbek tilida mavjud bo‘lmaganidan yanglish tushunilishi xavfi bor, shu bois dinamik ekvivalentlik usulida tarjima qilgan ma‘quldir.

8. Absence makes the heart grow fonder.

Shakliy ekvivalentlik: yo‘qlik qalbni muhabbatliroq qiladi.

Dinamik ekvivalentlik: boride qadrla, yo‘g‘ida qidirma.

Ikki usuldagi tarjima ham ma‘noga ega, ammo shakliy ekvivalent o‘zbek tili o‘quvchi yoki tinglovchilari uchun g‘aliz bo‘lishi bilan bir qatorda o‘zining ta‘sir kuchiga ham ega emasdir. Lekin dinamik ekvivalent diqqatni jalb qila olishi va ta‘sir kuchini saqlab qolgani bilan maqbul tarjima usuli hisoblanadi.

9. Let the cat out of the bag.

Shakliy ekvivalentlik: mushukni qopdan chiqar.

Dinamik ekvivalentlik: sirni fosh/oshkor qilma.

Shakliy ekvivalentlik usuli o‘zbek auditoriyasi uchun to‘g‘ridan-to‘g‘ri va yanglish anglashilgani bois dinamik ekvivalentlik usulini qo‘llash kerak.

10. When the cat is away, the mice will play.

Shakliy ekvivalentlik: mushuk ketsa, sichqonlar o‘ynaydi.

Dinamik ekvivalentlik: Sulaymon o‘lib devlar qutuldi.

Shakliy ekvivalent tarjima usuli g‘aliz va tushunish qiyin bo‘lgani uchun bu maqolda ham dinamik ekvivalentlikdan foydalanish darkor.

Xulosa

Xulosa sifatida aytganda, maqol va iboralarning tarjimasi murakkab jarayon b‘lib, tarjimondan mahorat talab qiladi. Maqol va iboralar tarjimasi nafaqat lingvistik aniqlikka bog‘liq balki asliyat til tarixi, ijtimoiy va madaniy hayotiga ham bog‘liq bo‘ladi, shu sababli har qanday maqol va iboraning ekvivalentini boshqa tilda topish mushkuldir. Tarjimon maqol yoki iborani shunchaki so‘zma-so‘z tarjima qilibgina qolmasdan uning madaniy mohiyatini chuqur anglashni talab qiladi, bu esa ko‘p hollarda maqol va iborani moslashtirish yoki qayta yaratishni talab qiladi.



Asliyat tildagi ma’noni madaniy, ijtimoiy va tarixiy jihatdan mos ravishda ikkala tilga ham uyg’unlashtirish zarur. Maqollar va iboralarni muvaffaqiyatli tarjima qilish uchun ijodkorlik, moslashuvchanlik va madaniy bilim va ko‘nikmalar kerak bo‘lib, bu orqali tarjimonning mahorati ko‘rinadi va bu bilimlar tarjimonga asliyat tildagi ma’noni hazil, o‘git yoki ogohlantirish kabi mazmuni saqlab qolgan holda yetkazish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. Baker, Mona. In Other Words: A Coursebook on Translation. Routledge, 1992.
2. Nida, Eugene A. Toward a Science of Translating Brill Archive Press, 1964.
3. Korunets I.V. Theory and Practice of Translation, Nova Knyha Publishers, 2001.
4. Zoya Proshina. Theory of Translation, (English and Russian) Vladivostok Far Eastern University Press, 2008.
5. G‘. Rahimov. Tarjima nazariyasi va amaliyoti darslik majmuasi, O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi Davlat Ilmiy Nashriyoti, Toshkent 2016